

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№4

2025
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxatiliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: “Navoiy” EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o‘g‘li	

ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATINI MOLIYAVIY VOSITALAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH: “NAVOIY” EIZ MISOLIDA

Quziev Ravshan Ramazanovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Moliya” kafedrası dotsenti., PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi (EIZ) misolida EIZlarning iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirishdagi o'rni tahlil qilingan. Xalqaro tajriba va milliy sharoitlar asosida EIZ faoliyatini moliyaviy vositalar orqali qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganilib, ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: erkin iqtisodiy zona, Navoiy EIZ, investitsiyalar, moliyaviy vositalar, iqtisodiy integratsiya, raqobatbardoshlik, xalqaro tajriba, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract: This article explores the role of free economic zones (FEZs) in economic diversification, investment attraction, and international integration, using the Navoi FEZ in Uzbekistan as a case study. Based on international experience and national context, the paper analyzes financial support mechanisms for FEZs and provides scientifically grounded recommendations for their improvement.

Keywords: free economic zone, Navoi FEZ, investment, financial instruments, economic integration, competitiveness, international experience, economic stability.

Аннотация: В статье рассмотрена роль свободных экономических зон (СЭЗ) в диверсификации экономики, привлечении инвестиций и углублении международной экономической интеграции на примере «Навоий» СЭЗ в Узбекистане. На основе международного опыта и национальных условий проанализированы финансовые механизмы поддержки СЭЗ и предложены научно обоснованные рекомендации по их совершенствованию.

Ключевые слова: свободная экономическая зона, Навоий СЭЗ, инвестиции, финансовые инструменты, экономическая интеграция, конкурентоспособность, международный опыт, экономическая стабильность.

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish, raqobatbardoshlikni oshirish va xalqaro savdoni kengaytirish maqsadida turli iqtisodiy mexanizmlardan foydalanmoqda. Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) ana shunday vositalardan biri bo'lib, ular nafaqat milliy darajadagi, balki mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ham katta hissa qo'shadi. Erkin iqtisodiy zonalar mamlakatlar uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, investitsiyalarni jalb qilish, texnologik yangilanish, eksport salohiyatini oshirish va mehnat bozorini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

EIZlarning iqtisodiyotga ijobiy ta'siri xorijiy va mahalliy investorlar uchun maxsus soliq va bojxona imtiyozlari, qulay infratuzilma va erkin iqtisodiy faoliyat uchun yaratilgan imkoniyatlar orqali namoyon bo'ladi. Bu imkoniyatlar yangi sanoat korxonalarining tashkil etilishi, texnologik jarayonlarning modernizatsiyasi hamda eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarilishi orqali milliy iqtisodiyotga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi ham iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida bir qator erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etdi. Ulardan biri “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasidir.



“Navoiy” EIZ O‘zbekiston iqtisodiyotida alohida o‘rin tutadi. Zona mamlakatning markaziy qismida joylashgani sababli strategik transport tarmoqlariga yaqin joylashgan. Hududning logistik imkoniyatlari, xorijiy va mahalliy investorlarga taqdim etilgan imtiyozlar va mavjud infratuzilma bu zonani nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosdagi investorlar uchun jozibador hududga aylantirmoqda. Mazkur zona orqali O‘zbekistonning iqtisodiy o‘lishi bilan bir qatorda xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashuvi ham kuchaymoqda. Bundan tashqari, zona yangi ish o‘rinlari yaratish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish va mintaqaning eksport salohiyatini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi globallashtirish sharoitida mamlakatlar xalqaro iqtisodiy integratsiyani jadallashtirishda EIZlardan samarali vosita sifatida foydalanmoqda. EIZlar davlatlarni xalqaro bozorlar bilan bog‘lab, iqtisodiy aloqalarni kengaytiradi, savdo jarayonlarini soddalashtiradi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlaydi (Gomez & Martinez, 2019).

EIZlar iqtisodiy integratsiyani rag‘batlantirishda ikkita asosiy yo‘nalishda faoliyat yuritadi. Birinchidan, ular eksport-import jarayonlarini soddalashtirish orqali savdo hajmini oshiradi va davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi. Ikkinchidan, EIZlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali texnologik bilimlar almashinuvini ta‘minlaydi, bu esa milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini oshiradi (Browning, 2020).

EIZlar iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, EIZlar uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga yordam beradigan innovatsiyalar va texnologiyalarni jalb qilishga zamin yaratadi. Ushbu zonalar davlatlarga iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi, bu esa uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi (Kumar & Patel, 2020).

Barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun EIZlarning infratuzilmasi va ishlab chiqarish imkoniyatlarini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. EIZlar orqali tashkil etilgan ishlab chiqarish tarmoqlari iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va samaradorlikni oshirishga imkon beradi. Patel va Sen (2021) tadqiqotlarida Hindiston misolida EIZlarning uzoq muddatli barqarorlikka ta‘siri o‘rganilgan. Ular shuni ko‘rsatadiki, EIZlar iqtisodiy samaradorlikni oshirish orqali mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘lishiga zamin yaratadi va global iqtisodiy tizimda raqobatbardoshlikni ta‘minlaydi.

Mamlakatimiz olimlari EIZlarning turli jihatlarini bo‘yicha ilmiy qarashlar va ta‘riflar keltirgan. A.V. Vaxobov EIZni “davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi kamaytirilgan va mamlakatning boshqa hududlarida qo‘llanilmaydigan imtiyozlar tizimi joriy etilgan maxsus geografik hudud” deb ta‘riflaydi (Vaxobov va boshqalar, 2010). Ushbu ta‘rifda iqtisodiy jarayonlarga davlatning aralashuvining kamaytirilishi muhim aspekt sifatida ta‘kidlanadi. S.S. Mirzalieva esa EIZni “mamlakat (yoki mamlakatlar) hududining iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik vazifalarni hal etish maqsadida barpo etilgan qismi” deb belgilaydi (Mirzalieva, 2013). Bu ta‘rif EIZning ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik vazifalarni hal qilishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Biroq, bu ta‘rif investitsiyalar hajmi va jalb etish imkoniyatlarini yetarli darajada yoritib bormaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot maqsadlariga erishish uchun dastlab “Navoiy” EIZ faoliyatiga doir rasmiy ma‘lumotlar, statistik hisobotlar va davlatning tegishli hujjatlari o‘rganildi. Shu bilan birga, iqtisodiy ko‘rsatkichlarning dinamikasi, moliyaviy resurslar hajmi va investitsiya salohiyati chuqur tahlil qilindi. Ma‘lumotlar tahlili jarayonida zamonaviy statistik usullar va iqtisodiy modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Tahlil natijalari asosida moliyaviy vositalarni takomillashtirish bo‘yicha xulosalar chiqildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, keng ko‘lamli hududiy islohotlar va samarali iqtisodiy siyosat natijasida mamlakat iqtisodiyotida sezilarli tarkibiy o‘zgarishlar kuzatildi. 1996-

yilda qabul qilingan “Erkin iqtisodiy hududlar to’g’risida”gi qonun ushbu yo’nalishdagi dastlabki huquqiy asoslardan biri hisoblanadi. Ushbu qonun xalqaro amaliyotdagi tajribalarga tayangan holda ishlab chiqilgan va O’zbekiston sharoitlariga moslashtirilgan edi. Keyinchalik, 2008-yil 2-dekabrda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona (EIZ) tashkil etish to’g’risida”gi farmon imzolandi. Bu farmon Navoiy viloyatida keng ko’lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun mustahkam poydevor yaratdi. “Navoiy” EIZ milliy iqtisodiyotda yangi bosqichni boshlab beruvchi birinchi erkin iqtisodiy zona sifatida O’zbekiston tarixiga kirdi.

“Navoiy” EIZ tajribasi asosida mamlakatning boshqa hududlarida ham erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish ishlari boshlanib, bu jarayon izchil davom ettirildi. Masalan, 2012-yil 13-aprelda Prezident farmoni bilan “Angren” erkin iqtisodiy zonasi tashkil etildi, shuningdek, 2013-yil 18-martda “Jizzax” erkin iqtisodiy zonasi tashkil etishga doir farmon qabul qilindi. Ushbu zonalarda olib borilayotgan iqtisodiy faoliyat xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o’rinlari yaratish va ishlab chiqarish hajmini oshirish kabi maqsadlarga xizmat qildi.

2025-yil 15-mayda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan Navoiy viloyatiga 2030-yil 1-yanvargacha innovatsion va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar uchun erkin iqtisodiy zona maqomi berildi. Ushbu maqomning muddati zarurat tug’ilganda uzaytirilishi mumkin. “Navoiy” EIZ maqomini olgan korxonalar qator soliq va bojxona imtiyozlaridan foydalanish huquqiga ega bo’ldi. (1-rasm).



1-rasm. “Navoiy EIZ” maqomidagi korxonalar uchun soliq va bojxona imtiyozlari.

Manba: muallif ishlanmasi

Navoiy viloyatini EIZ sifatida rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, to’g’ridan-to’g’ri xorijiy va mahalliy investitsiyalarni faol jalb qilish, kimyo va qurilish materiallari ishlab



chiqarishga ixtisoslashgan klasterlarni tashkil etish hamda transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab qo'yilgan. Bu yo'nalishlar viloyat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, mintaqaning sanoat salohiyatini kuchaytirish va aholi bandligini ta'minlashda asosiy omillar sifatida ko'rilmogda.

Kiritilgan investitsiya hajmiga qarab, ushbu imtiyozlar quyidagicha taqdim etiladi:

3 yilgacha: kichik hajmdagi investitsiyalar uchun.

5 yilgacha: o'rtacha hajmdagi investitsiyalar uchun.

7 yilgacha: yirik hajmdagi investitsiyalar uchun.

10 yilgacha: strategik ahamiyatga ega va juda katta hajmdagi investitsiyalar uchun(1-jadval):

1-jadval.

1-jadval. "Navoiy EIZ da Investitsiya hajmiga qarab soliq va bojxona imtiyozlari.

Investitsiya hajmi (AQSh dollari)	Imtiyoz muddati
300 ming dollardan 3 million dollargacha	3 yil
3 million dollardan 5 million dollargacha	5 yil
5 million dollardan 10 million dollargacha	7 yil
10 million dollar va undan ko'p	10 yil So'nggi 5 yil davomida foyda solig'i va yagona soliq to'lovlari amaldagi stavkalarining 50 foizi miqdorida qo'llanadi.

Manba: muallif ishlanmasi

Chet el investorlari ishtirokidagi korxonalar uchun qo'shimcha qulayliklar ham nazarda tutilgan. Jumladan, "Navoiy" EIZ ishtirokchilari va ularning oila a'zolari uchun 1 iyundan boshlab O'zbekiston hududida amal qilish muddati uzaytirilishi mumkin bo'lgan 3 yillik "investitsion viza" joriy etiladi. Bu viza xorijiy investorlar va ularning oilalari uchun mamlakatda qulay sharoitlarda faoliyat yuritish va istiqomat qilish imkonini beradi.

Ushbu yangi farmon va imtiyozlar bilan "Navoiy" EIZ nafaqat mahalliy, balki xalqaro investorlar uchun ham jozibador iqtisodiy hududga aylanadi. Bu esa Navoiy viloyati iqtisodiyoti va sanoatining raqobatbardoshligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, va eksport salohiyatini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi.

2-jadval. Navoiy viloyatining makroiqtisdiy ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2015 y.	2020 y.	2022 y.
Yalpi hududiy mahsulot	mlrd.so'm	4325,6	10545,2	49742,2
	o'sish sur'ati, % da	103,9	103,8	107,1
Sanoat mahsuloti	mlrd.so'm	4038,5	9286,9	65084,9
	o'sish sur'ati, % da	99,6	103,4	109,1
Asosiy kapitalga investitsiyalar	mlrd.so'm	1741,8	1809,1	15683,4
	o'sish sur'ati, % da	2,5	90,7	77,1
Tashqi savdo aylanmasi	mlrd.so'm	926,0	802,5	1312,3
	o'sish sur'ati, % da	108,9	81,8	71,5
Eksport	mlrd.so'm	553,4	441,4	426,5
	o'sish sur'ati, % da	112,1	108,6	111,7
Import	mlrd.so'm	372,6	361,1	885,8
	o'sish sur'ati, % da	104,5	65,7	60,2

Manba: muallif ishlanmasi

Navoiy viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari 2015–2022-yillarda barqaror o'sish sur'atlarini ko'rsatdi. Yalpi hududiy mahsulot hajmi sezilarli darajada o'sdi: 2022-yilda 49 742,2 milliard so'mga yetib, o'sish sur'ati 107,1 foizni tashkil qildi. Sanoat mahsuloti hajmi ham barqaror o'sdi va 2022-yilda 65 084,9 milliard so'mga yetdi, bu esa sanoat faoliyatining davomiy rivojlanishini ko'rsatmoqda.

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi oshgan bo'lsa-da, uning o'sish sur'ati 2015-yildagi 2,5 foizdan 2022-yilda 77,1 foizga tushgan. Bu investitsiya hajmining oshganiga qaramay, o'sish tezligi sekinlashganidan darak beradi. Tashqi savdo aylanmasi 2022-yilda 1 312,3 milliard so'mni tashkil etdi, lekin o'sish sur'ati pasayib, 71,5 foizga yetdi.

Eksport hajmi 2022-yilda kamayib, 426,5 milliard so'mni tashkil qildi, o'sish sur'ati esa 111,7 foizga teng bo'ldi. Shu bilan birga, import hajmi sezilarli darajada oshib, 885,8 milliard so'mga yetdi va uning o'sish sur'ati 60,2 foizgacha pasaydi. Bu ko'rsatkichlar viloyatning importga bo'lgan talabining ortayotganini va eksport-import balansidagi o'zgarishlarni ko'rsatib bermoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega institutsional vosita hisoblanadi. Ularning samarali moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi barqaror iqtisodiy o'sish, hududiy faollikni oshirish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, yetarli darajada rivojlanmagan moliyaviy infratuzilma, cheklangan moliyaviy instrumentlar va mexanizmlar EIZlarning to'liq funksional salohiyatini ro'yobga chiqarishda jiddiy to'siqlarni yuzaga keltiradi. Bu holatni bartaraf etish hamda EIZlar faoliyatining moliyaviy asoslarini mustahkamlash uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Integratsiyalashgan moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqish.

Har bir EIZ uchun moliyaviy vositalar (subsidiyalar, investitsion grantlar, sug'urta va kafillik tizimlari) hamda soliq-budjet siyosatini birlashtirgan kompleks strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

Moliyaviy vositalarni diversifikatsiyalash.

EIZlarning iqtisodiy profili va infratuzilmaviy imkoniyatlari asosida moslashtirilgan moliyaviy paketlarni joriy etish, resurslardan samarali foydalanish hamda investorlar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga yordam beradi.

Raqamli moliyalashtirish infratuzilmasini rivojlantirish.

Elektron grant va kredit platformalari, ochiq axborot tizimlari va avtomatlashtirilgan subsidiya monitoringi orqali moliyaviy jarayonlarda shaffoflik va samaradorlikni oshirish tavsiya etiladi.

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish.

Zamonaviy moliyaviy texnologiyalar, xorijiy investitsiyalar va innovatsion yondashuvlarni EIZlar faoliyatiga integratsiya qilish uchun xalqaro moliyaviy institutlar va xususiy sektor bilan hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish lozim.

Moliyaviy samaradorlikni baholash tizimini takomillashtirish.

EIZlar faoliyatining iqtisodiy natijalarini aniq baholash uchun kapital rentabelligi, investitsiya foydaliligi, fiskal samaradorlik va eksport salohiyatini o'lchashga asoslangan kompleks monitoring va baholash tizimini ishlab chiqish zarur.


Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali EIZlarning milliy iqtisodiyotdagi institutsional barqarorligini mustahkamlash, investitsion muhitni yaxshilash va iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini oshirish mumkin. Shu bilan birga, xalqaro tajribani chuqur o'rganish va mahalliy shart-sharoitlarga moslashtirish orqali EIZlar uchun uzoq muddatli va barqaror moliyaviy modelni shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. S. Browning. International Economic Integration through Special Economic Zones: A Global Perspective. Journal of Global Economics, Vol. 14(3), 2020. – P. 78–92.
2. R. Gomez, L. Martinez. The Role of SEZs in Fostering International Trade Relations. International Trade Journal, Vol. 6(1), 2019. – P. 45–59.



3. S. Liu, T. Wong. Economic Cooperation through Special Economic Zones: The Case of Singapore and Malaysia. *Asian Economic Studies*, Vol. 10(2), 2019. – P. 67–82.
4. V. Kumar, A. Patel. Long-Term Economic Stability and the Role of Special Economic Zones in Developing Countries. *International Economics Review*, Vol. 5(2), 2020. – P. 103–119.
5. R. Patel, P. Sen. Free Economic Zones in India: Long-Term Impacts on Economic Sustainability. *India Economic Review*, Vol. 19(2), 2021. – P. 154–172.
6. A.V. Vaxabov, Sh.X. Xajibakiev, N.G. Muminov. *Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma.* – T.: Moliya, 2010. – 180 b.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100